

145. Aylana va doira

Yondosh mavzu:


sirk.

Radius,
aylana, doira.



1. Sirkda 1000 ta o'rin bor. Uning yarmini bolalar egallashdi, 350 orinni kattalar band qilishdi. Nechta orin bo'sh qoldi?

Masalaga doir diagramma qanday shaklda tasvirlangan?



- bolalar
- kattalar
- bo'sh o'rinalar

2. Daftaringizga O nuqtani qo'ying. Bu nuqtadan 3 santimetr masofani belgilang va B nuqtani qo'ying. Doira chizish uchun sizga sirkul kerak bo'ladi. Sirkulning ignali oyoqchasini O nuqtaga, ikkinchi oyoqchasini esa B nuqtaga qo'ying. Sirkulning ignali oyoqchasini siljitmagan holda sirkul qalamini O nuqta atrofida aylantiring. Hosil bo'lgan shakl aylana deb ataladi. Aylana uning ichki qismi bilan birga doira deb ataladi.




O nuqta – aylananing markazi.
OA kesma – aylananing radiusi.
BC kesma – aylananing diametri.



3. Sirk arenasining diametri 12 metr. Arena markaziga savatcha qo'yilgan, arena chetlari bo'ylab maymun yugurmoqda va shu savatchaga koptok otmoqda. Koptok savatchagacha necha metr masofani uchib o'tadi?



4. Doiraning radiusini o'lchang. Uni 1 santimetrga qisqartiring va daftaringizga yangi doirani chizing.



5. Jadval bo'yicha ifoda tuzing va masalani yeching.

Bor edi	Sotib olindi			Bo'ldi
120 dona buyum				 ?
25 donadan 2 quti	30 donadan 8 quti	35 dona		



6. Sirkda namoyishlar 70 minut davom etadi. Ulardan 10 minuti masxarabozlar chiqishiga va shuncha vaqt fokuschilar chiqishiga ajratilgan. Fokuschilar 7 minut, akrobatlar esa 11 minut chiqish qilishadi. Qolgan vaqt sakkizta o'rgatilgan hayvonlar bilan chiqishlarga baravardan taqsimlangan. Bitta o'rgatilgan hayvonlar bilan chiqishga necha minut ajratilgan?



7. Aylananing radiusi diametrning yarmini tashkil etadi. Shu aylanani chizing.

146. Aylana va doira

Yondosh mavzu:
foydali hordiq.

Radius, aylana, doira.



1. Rassom palitrasiga diqqat bilan qarang.



Palitra – rassomning ish anjomi. Rassom unda yangi rang hosil qilish uchun turli rangdag'i bo'yoqlarni aralashtirishi mumkin.

Har bir rang yacheykasining diametrini taq qoslang. Nimani payqadingiz?

2. Ifodalarni yozing.

- Diametri a santimetrga teng bo'lgan aylananing radiusini toping.
- Radiusi d detsimetrga teng bo'lgan aylananing diametrini toping.
- Tomoni k millimetrga teng bo'lgan kvadratning perimetrini toping.
- Tomonlari m va n metr bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetri nimaga teng?
- Bo'yi f santimetr, eni g santimetr, balandligi esa h santimetr bo'lgan kuboidning hajmi nimaga teng?


3. O'quvchilar matematika darsida "Doiralarni toping" o'yinini o'ynashdi. Birinchi jamoa 18 ta dumaloq predmet topdi.

Bu ikkinchi jamoa topganidan 2 ta predmet kam va uchinchi jamoa topganidan 2 marta ko'p. O'quvchilar jami nechta predmet topganlar? Siz ham atrofingizdan doirani qidirib topishga harakat qilib ko'ring.



4. Qizlar asfaltga bo'r bilan doiralar chizishdi va ularning diametrlarini o'lchashdi. Agar yo'lning kengligi 3 metr bo'lsa, eng katta doiranining radiusi 2 metr bo'lishi mumkinmi?

Yo'l bo'y lab sayr qilishni harakatli o'yinlar bilan qo'shib olib borish mumkin. Qanday faol o'yinlarni bilasiz?



5. Radiusi 3 santimetr bo'lgan aylana chizing. Aylana ichiga A va B nuqtalarni shunday qo'yingki, bu nuqtalarni tutashtiruvchi kesma uzunligi 5 santimetrga teng bo'lsin.



6. Amaliy ish.

Markazi O nuqtada bo'lgan 2 santimetr radiusli aylana chizing. O nuqtadan 3 cm masofada B nuqta qo'ying. Markazi B nuqtada bo'lgan aylana chizing. B nuqtadan 4 santimetrlri kesma ajrating, C nuqtani qo'ying va markazi shu nuqtada bo'lgan yangi aylana chizing. Qonuniyatni aniqlang va barcha aylanalarning radiuslari bir xil ekanini va kesmalarni bitta to'g'ri chiziq bo'y lab chizish kerakligini bilgan holda yana ikkita aylana chizing.



7. Tenglamalarni yeching.

$$x \cdot 20 = 200 \quad 15 \cdot x = 150 \quad x : 100 = 9 \quad 800 : x = 10$$



8. Radiusi tomoni 2 santimetr bo'lgan kvadrat perimetring yarmiga teng bo'lgan aylana chizing.

Yondosh mavzu:
sog'lom turmush tarzi.

Bu bo'limda biz sog'lig'imizni asrashda yordam beruvchi sport haqida ko'p gapirdik. Sizga ma'lumki, shaxmat ham sportning bir turi.



1. Ayrim shaxmat donalari qanday atalishi va qanday yurishi haqidagi ko'rsatmalarni o'qing. 10 ta yurish qiling va maqolni toping. Shaxmat donalari ustidan sakrab o'tib yurish mumkin emasligini yodda tuting!




1. h2 ot kirill alifbosidagi "Г" harfi bo'yicha yuradi
2. e7 piyoda bir katak oldinga yuradi
3. a6 rux gorizontal yoki vertikal yo'nalishda istalgan
4. c2 miqdordagi katakchaga yuradi
5. h1 fil diagonal bo'ylab istalgan
6. h8 miqdordagi katakchaga yuradi
7. c5
8. d3
9. h3
10. e2



2. Estafeta shunisi bilan qiziqarlik, u musobaqaning bir necha bosqichini o'z ichiga oladi.


Agar mактабдаги estafeta har birini alohida shakl bilan belgilash mumkin bo'lган то'ртta topshiriqdan tashkil topgan bo'lsa, uning bosqichlarini qanday taqsimlash mumkin ekanini o'ylab ko'ring.



Variantlar nechta bo'lishi mumkin?



3. Bu yerda qanday sport turlari yashirunganini aniqlang. Ifodalarni ularning qiymatlari bilan birga yig'ing.



4. Rahim sportchilar haqidagi masalani yechdi, biroq xatoga yo'l qo'ydi. U qayerda xato qilgan?

Futbolchilar – 26 nafar, 2 marta kam

Basketbolchilar – ?

Yechimi: $26 : 2 = 13$



5. Misollarni ikki guruhga ajrating. Birinchesiga javobida yaxlit son bo'lganlarini, ikkinchisiga yaxlit son bo'lmaganlarini yozing.

$450 : 45$	Halqa	$45 \cdot 3$	Bo'r
$12 \cdot 8$	Ruchka	$32 \cdot 2$	Daftar
$20 \cdot 5$	Sakragich	$500 : 50$	Raketka
$100 : 4$	Kitob	$10 \cdot 32$	Finjon
$45 \cdot 2$	Koptok	$31 \cdot 3$	Flomaster

Qaysi so'z noto'g'ri tanlangan?

Bu so'zni almashtira oladigan so'z topa olasizmi?